

**Saydullayev Shohruhjon Shuhratjon o’g’li**

*O’zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti Siyosatshunoslik yo’nalishi 2-kurs talabasi*

*shohruhsaydullayev904@gmail.com Tel: 930737601*

**Khikmatov Fatkxulla Khabibullayevich**

*O’zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti*

*Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD).*

*fatkhulla\_xikmatov@mail.ru*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada IX-XII asrlarda sharqda shakllangan Renessans davrining XIII asr boshiga borib inqirozga uchrash sabablari keltirilgan. Rivojlangan O’rta asr sharq renessansi inqiroz sabablarini o’rganishda g’arb sotsiologlaridan A. Toynbi, faylasuf va tarixchilaridan O. Shpengler, sharq tarixchi va faylasuflaridan Ibn Xaldun nazariyalari va ta’limotlaridan foydalanildi. Shuningdek, inqiroz sabablari XIII asrdagi Yaqin sharq, Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasidan kelib chiqqan holda o’rganildi.*

*Navbatdagi ilmiy ishlarmizda, eng qadimgi sivilzatsiyalarning shakllanish, rivojlanish hamda inqirozga yuz tutishi sabablaridagi farqlar hamda o’xshashliklarni o’rganishga qaror qildik.*

**Kalit so’zlar:** *sivilzatsiya, sivilzatsiyalar inqirozi, feodalizm, feodalizm inqirozi, ma’daniyat, feodal jamiyat, feodal davlat, ijtimoiy qatlama, sharq, sharq renessansi.*

## **THE CAUSES OF THE CRISIS OF THE DEVELOPED MEDIEVAL EASTERN RENAISSANCE**

**Abstract:** *In our scientific work, we decided to study the differences and similarities in the reason for the formation, development and crisis of the oldest civilizations.*

**Key words:** *civilization, crisis of civilization, feudalism, crisis of feudalism, culture, feudal society, feudal state, social class, East, Eastern Renaissance.*

**Kirish.** Rivojlangan o’rta asr sharq renessansi inqirozi Markaziy va Janubiy Osiyo hududlarida kutilgan ilm-fan va texnika tarraqqiyotini yo’qqa chiqardi. Mazkur hududlarda Xorazmshohlar davlati, Mo’g’ullar imperiyasi, Dehli sultonligi kabi davlatlarning muntazam olib borilgan urush siyosati, yirik logistika hisoblangan Buyuk ipak yo’lida savdo aloqalariga salbiy ta’sir qilmasdan qolmadi.

Insoniyat qadimgi sivilzatsiyasining shakllanishi, emperik jihatdan yondashilganda, siyosiy xarakterga ega ekanligini, ya’ni, insonlarning oziq- ovqatga, mol-mulklarini muhofaza qilishga, dehqonchilik faolyatini amalga oshirishga bo’lgan moddiy, biologik , ijtimoiy kabi ehtiyojlarni fuqarolik jamiyati shakllanishi orqali

qondirilganligida ko'rishimiz mumkin. Sababi har bir individ o'zi alohida yuqoridagi ehtiyojlarni qondirish kuchiga ega emasligi, ularda jamoalarga birlashish zaruratinini yuzaga keltiradi.{1 }

**MUHOKAMA VA NATIJALAR.** Rivojlangan o'rta asr sharq renessansi inqirozi sabablarini A. Toynbi „A study of history”, I.Khaldun „The Muqaddimah” , Shpengler „ „Закат Европы”“ asarlari asosida uch xil yondashuv bilan keltirishimiz mumkin.

Birinchi yondashuv, sivilzatsiyalarning sinishiga sabab bo'ladigan vertikal ixtiloflar, ya'ni aholining ijtimoiy guruhlarga bo'linishi va bir-birlariga nisbatan urush kayfiyatida bo'lishi oqibatida yuzaga keladi.{2 }

Ikkinci yondashuv, har bir sivilzatsiya davriy xususiyatga egaligi, ya'ni tug'ilish, rivojlanish va tannazulga yuz tutishi kabi bosqichlarni bosib o'tish qonuniyati asosida vujudga keladi.{3 }

Uchinchi yondashuv, sharq sivilzatsiyasining shakllanishida muhim ro'l o'ynagan suv, oziq-ovqat, mol-mulk daxlsizligi kabi ehtiyojlar aholi ijtimoiy hayotining ajralmas qismiga aylangan edi{4 }. XIII asrda hukmron elita vakillari aholining yuqoridagi ehtiyojlaridan foydalanib, o'ziga qaram qilish siyosati kuchaydi.

Bir so'z bilan aytganda, inqiroz sabablari faqatgina ma'lum qonuniyatlar va nazaryalar orqali vujudga keldi, degan fikrdan yiroqmiz bu davrdagi feodalizm va qabila-urug'chilikning kuchayishi, tashqi dunyodan uzilish kabi stimullarni keltirishimiz maqsadga muvofiqli.

Feodalizmning kuchayishi. Feodalizm shunday jamiyatki, unda hamma yer, mol-mulk humkron elitaga tegishli bo'ladigan hamda ommani o'sha hukmron elitaga qul qiladigan, tarraqiyotga kata to'siq bo'ladigan jamiyatdir. Sharqqa dastlab feodalizm V asrda kirib kelgan hamda buning oqibatida dehqonlar, kadivarlar, kashavarzlar kabi ijtimoiy qatlamlarning paydo bo'lismiga olib kelgan. Lekin keyinchalik bu feodalizmning inqiroziga uchrashi sharqda ilk renessans shakllanishiga zamin yaratdi. IX asrda yirik yer egalari o'z yerlarini kadivarlarga ijara bera boshlashi natijasida kadivarlar ham qisman yer egasiga aylandi. Ular hosilning 1/3, 1/5 qismini soliq sifatida yer egalariga topshirganlar. Shundan so'ng odamlar kun o'tkazish uchun emas, yaxshi hosil olish uchun ko'proq mehnat qila boshlaganlar tub joy aholisiga hos bo'lgan dehqonchilik ma'daniyati asta sekinlik bilan tikalana boshladi.{5 }

Ammo XIII asr feodalizmning kuchayishi asri bo'lib tarixga kirdi. Sababi Markaziy va Janubiy Osiyo hududida tashkil topgan Mog'ullar imperiyasi va Dehli sultonligi feodal jamiyatga asoslangan feudal davlat sifatida shakllandı. Dehli sultonligi Hindistonda musulmonlar tomonidan tuzilgan ilk feudal davlat bo'lib, hokimyatni boshqarishda yerga egalik qilish, muhim o'rinn tutgan. Hindistonning rojalarga bo'linib, mayda-mayda davlatlar tashkil topishi, aslida ham feodalizmning mahsulidir

Mo'g'ullar imperiyasi Markaziy Osiyonidagi istilo qilishi, bu hududda feodalizmning eski qoldiqlarini tikladi hamda tub joy aholisinig dehqonchilik ma'daniyati so'nishiga

olib keldi. Chingizzon tomonidan o'g'illari (Jo'ji, o'qtoy, chig'atoy, tuli) ga hududlarni ulus(davlat) shaklida bo'lib berilganligi, odamlarni feodalizmcha ma'daniyatga moslashtirishi bilan birga aholida dehqonchilik faolyati ishtiyoyqini sussaytirdi.

Ijtimoiy qatlama bo'linishi. Ilk sivilzatsiyalar paydo bo'lishi tarixiga nazar tashlasak, dastlab odamlarning dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullana boshlashi, ularning ijtimoiy qatlamlarga bo'linishiga chek qo'ydi. Sababi odamlarni dehqonchilik uchun zarur bo'lgan kanal qazish, suv chiqarish hamda mol-mulkni himoya qilish kabi zaruratlar, turli-xil qabilalardan iborat odamlar jamoasiga birlashtirdi. Oqibatda inson uchun qaysi qatlama yoki qabilaga mansublik muhum kasb etmay qoldi{7}.

XIII asrda sharq hududidagi Xorazmshohlar, Arab xalifaligi, Dehli sultonligi kabi davlatlarda odamlar ijtimoiy sinflarga bo'linishi nihoyatda kuchayib ketdi. Xususan Xorazmshohlar davlatida qipchoq, turkman, sadr(xorazmning tub joy aholisi) kabi qabila-urug'larga bo'linib, hokimyatda muhim o'r'in egallashga intilishi malakatni zaiflashishiga olib kelgan. Eng asosiysi, odamlar uchun hokimyatda turgan shaxslarning qaysi urug'ga mansub bo'lishi, muhim ahamiyat kasb etib qolgan edi. Asta sekinlik bilan odamlar psixologiyasiga qaysi urug'ga mansublik, boshqa urug'larga nisbatan nafrat va mensimaslik kabi goyalar singib ketgan edi{8}.

Dehli sultonligidagi ijtimoiy sinflar(kasta, varna)ga ajralish azaldan meros bo'lib kelgan, lekin O.Shpengler hind sivilzatsiyasini eng qadimgi ma'daniyatlar o'chog'i sifatida ta'kidlaganligini hamda sakkizta madaniyat o'chogi(hind, bobil, vizantiya, rim, maya, yunon, misr, xitoy)sifatida e'tirof etganligini unutmasligimiz kerak.

Dehli sultonligi musulmonlar tomonidan boshqarilgan va davlat tarraqiy etgan davrga nazar solsak, asosan yangi yerlarni bosib olgan hamda feudal jamiyatgha asoslangan davlat ekanligini ko'rishimiz mumkin. Mamlakatdagi musulmonlar va hindalr o'rtasidagi diniy ixtiloflar sultonlikda ilm-fan, san'at sohasidagi yutuqlarni cheklagan. Lekin, bu diniy ixtilofga Boburiylar hukmronligi davrida chek qo'yilgan(1526-1858). Shu sababli, Musulmonlar va hindlar hokimyani boshqarishda birgalikda harakat qilishi, masjidlar bilan bir qatorda hind ibodatxonalari ham qurilishi, diniy erkinlikning davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi davlatning sa'nat, ilm-fan, arxetektura, me'morchilik, haykaltaroshlik kabi sohalarda muhim yutuqlarga erishishiga zamin yaratdi.{9}

Shunday ekan, sharq renessansi ma'lum qonuniyatlar asosida shakllandi va ma'lum bir qonuniyatlar asosida inqirozga yuz tutdi. Sharq sivilzatsiyasining yutuqlari keyinchalik XIV asrda g'arb tomonidan o'zlashtirilib, ilm-fan va texnika taraqqiyotida inqilob vujudga kelishiga zamin yaratdi va bu hozirgi kunga qadar g'arbning ta'lim, sog'liqni saqlash, ilm-fan, texnika sohalarida sharqdan ildamlab ketishiga sabab bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Xulosa va tavsиялар. Xulosa o'rinda aytishimiz joizki, rivojlangan o'rta asr sharq renessansi inqirozga uchrashi ham yuqorida ta'kidlagan qonuniyatlar ta'sirida yakun topdi. Xuddi inson organizimidek malum vaqt yashadi, rivojlandi va barham topdi.

Feodalizm va qabila-urug'chilikning kuchayishi, tashqi dunyodan uzilish kabi sabablar sharq renessansi inqirozini tezlashtirdi. Shu bilan birga hududda imperialistik siyosat olib borilishi o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmasdan qolmadı.

Davlatimiz uchinchi renessans poydevorini qurishostonasida turar ekan, eng avvalo aholining ijtimoiy sinflarga ajralishiga sabab bo'lgan siyosiy institatlarni isloh qilish, ta'lim tizimidagi eskilik sarqitlaridan voz kechish maqsadga muvofiq bo'lardi.

**REFERESES:**

1. I.Khaldun "The Muqaddimah" "Bollingen series" 2005-y 101-b
2. A.Toynbee "Astudy of history" "DELL PUBLISHING CO inc" 1974-Y, 286-b
3. О.Шпенглер „Закат Европы” “Феникс” 1998-г 167-б
4. I.Khaldun „The Muqaddimah” „Bollingen series” 2005-y 107-b
5. A.Muhammadjonov „O'zbekiston tarixi” 2017-y 5-7-b
6. N.Nizomiddinov „Hindistonnind qadimgi tarixi , diniy e'tiqodi” .Toshkent” 2014-y 210-b
7. B.Ahmedov „Tarixdan saboqlar” „Toshkent” 1994-y 418-b
8. И.Жабборов “Хоразмшохлар давлати”, Шарқ” 1999-й 33-б
9. N.Nizomiddinov “Hindistonnind qadimgi tarixi , diniy e'tiqodi” Toshkent 2014-y 215-b